

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O`RTA MAXSUS TA'LIM**

**VAZIRLIGI**

**JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI  
"KASBIY TA'LIM VA PEDAGOGIKA"**

**kafedrası**

**"YaNGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR"**

**fanidan mustaqil ta'lim va amaliy  
mashg`ulotlarni bajarishga doir**

**USLUBIY KURSATMA**



**ЖИЗЗАХ - 2011**

Mazkur uslubiy ko`rsatma barcha yo`nalishdagi bakalavrlar uchun mo`ljallangan bo`lib, o`qitishning yangi davlat standartlariga va ishchi o`quv dasturlariga to`la mos keladi.

Uslubiy ko`rsatmalar talablariga «Yangi pedagogik texnologiyalar» fanining nazariy, amaliy qismlarini o`zlashtirishda ma'ruza va amaliy mashg`ulotlar rejalari, foydalaniladigan adabiyotlar, mavzularni o`rganish jarayonida o`rganilishi zarur bo`lgan asosiy tayanch iboralar, referat mavzulari, yangi mavzuni mustahkamlash uchun mashq, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun topshiriqlar, shuningdek, takrorlash uchun savollardan iborat bo`lib, to`liq ma'lumotlarni o`z ichiga olgan.

Uslubiy ko`rsatma «Kasb ta'limi va pedagogika» kafedrasining 2011 yil \_\_\_\_ oktyabrdagi № \_\_\_\_ sonli yig`ilishida ko`rib chiqilgan.

Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ p.f.n. N. Alimov

«Qurilish» fakulteti ilmiy kengashining \_\_\_\_\_ 2011 yil № \_\_\_\_ sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Fakultet dekani: \_\_\_\_\_ dots. J. Hamidov

Tuzuvchi: \_\_\_\_\_ p.f.n. N. Alimov

Takrizchi:

«Kasb ta'limi va pedagogika»

kafedra dotsenti: \_\_\_\_\_ S. Ro`ziboev

## KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturning ikkinchi – sifat boskichi amalga oshirilmokda. Kadrlarni tayyorlashda sifatga erishishimiz uchun biz o'qituvchilar ta'limda an'anaviy o'qitishning ijobiy tomonlarini saqlagan holda, yangi, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini, o'zimizning milliy mentalitetimizni hisobga olgan holda keng qo'llashimiz asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki dunyoda barcha sohalarda bo'lganidek ta'lim sohasida ham rivojlanish ketmoqda. O'z o'zidan rivojlanish yangi qarashlarga, ilgarigi ishlarga tuzatishlar kiritilishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda ta'limga ham texnologik yondoshish ilmiy-texnika taraqqiyotining talablaridan biri hisoblanadi. Natijada ta'lim berishda yangi nazariyalar, usullar va vositalardan foydalanish uchun ulardan sistemali foydalanish va bu jarayonni loyihalash maqsadga muvofiqligi ayon bo'ldi. qaerda jarayon kechsa, u loyihalanadi va o'z navbatida bu jarayonni loyihalash uchun uning texnologiyasi ishlab chiqiladi. Yangi ta'lim texnologiyalari ilgarigi ta'lim nazariyasi, usullari va vositalarining ijobiy tomonlarini rivojlantiradi va salbiy tomonlaridan voz kechadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

### FANNING MAQSADI:

Talabalarga:

pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishi, uning o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyati, mohiyati, tashkil etuvchilari, hamda ularni o'quv mashg'ulotlarida qo'llash tug'risida nazariy bilimlarni berish;

hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarning tuzilishi, qo'llash printsipi va didaktik imkoniyatlarini o'rgatib, ularda pedagogik texnologiyalardan o'quv jarayonida foydalanishga doir malakalarni shakllantirish;

shu fan bo'yicha o'rgangan bilimlari va shakllangan malakalari asosida pedagogik texnologiyalarni ishlab chikishga doir boshlang'ich ko'nikmalar hosil qilish.

## **1-Ma'ruza**

### **Mavzu: O`qitish jarayoniga texnologik yondoshishning mohiyati va ahamiyati**

#### **Reja:**

O`zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini jahon standartlari talablariga muvofiqlashtirish vazifalari.

2. O`qitish jarayoniga texnologik yondoshishning vujudga kelishi va rivojlanishi.

3. Pedagogik texnologiyaning maqsadi, vazifalari va predmeti.

4. O`qitish jarayoniga texnologik yondoshishning o`ziga xos xususiyatlari.

Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari (talabaning vazifalari). Talaba bu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:

-pedagogik texnologiya iborasining vujudga kelish sabablari va uni rivojlanish tarixini biladi;

-pedagogik texnologiya tushunchasi ta'rifini aytib beradi;

-pedagogik texnologiya bo`yicha o`quv jarayonini tashkil etish sxemasini chizadi va tushuntiradi;

-pedagogik texnologiyaning ta'lim tizimiga joriy etishning ahamiyatini baholay oladi.

#### **TAYANCH IBORALAR:**

Aktuallashtirish – shaxsdagi mavjud bilim, malaka va k`ynikmalarni turli axloqiy shakllar va hissiy holatlarni qayta ishlab chiqish va ularni botiniy holatdan zaririy harakatlarga aylantirish.

Aksiologiya – qadriyatlar to`g`risidagi falsafiy ta'limot, aksiologik qadriyat mohiyati.

Aksiologik yondoshuv – insonparvarlik pedagogikasiga xos bo`lgan xususiyot, bunda inson ijtimoiy qadriyat va jamiyat rivojlanishining provard maqsadi sifatida qaraladi. Aksiologik tafakkur o`zaro aloqadagi, ham o`zaro harakatdagi dunyo kontseptsiyasiga asoslanadi.

Axborotli malaka – ta'lim va tarbiya masalalariga axborotlarni moslashtirish va talqin qilish malakasi.

Axloq – shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy xulq qoidalari, u ijtimoiy ong shakllaridan biridir.

Boshqarish – tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, ob'ektning o`z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil qilish va yakun yasash.

Burch – muayyan axloqiy majburiyatlarni his qilish, uning zarurligini anglash.

Vazifa – maqsad va uni amalga oshirish bosqichlarining oydinlashtirilishi.

Davlat ta'lim standarti – uzluksiz ta'limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qo'yiladigan minimum talablar.

### **Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi**

**Birinchi savolda:** O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini jahon standartlari talablariga muvofiqlashtirish vazifalari haqida batafsil tushuncha berish. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida (1997 yil 29 avgust) Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishiga alohida to'xtalish lozim. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan barcha o'quv yurtlarda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar.

**Ikinchi savolda:** O'qitishga texnologik yondashuvni vujudga kelishi va rivojlanishi haqida tushuncha beriladi, Xalqaro YuNESKO tashkiloti tomonidan pedagogik texnologiya tushunchasiga ta'rif beriladi, ta'lim tizimida pedagogik texnologiya iborasini paydo bo'lishiga asosiy sabablar.

**Uchinchi savolda:** Pedagogik texnologiyaning maqsadi vazifasi haqida fikrlar bildirilishi kerak, "O'quv materialining to'la o'zlashtirilishi" tushunchasi nimani anglatadi?, kanday kilib talabalarning to'la o'zlashtirilishiga erishish mumkin?,

**To'rtinchi savolda:** O'qitish jarayoniga texnologik yondashish (pedagogik texnologiya) ning o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil tushuncha beriladi. O'qitishga texnologik yondashish g'oyalari.

### **Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar**

Nazorat testlarini echib, belgilangan o'quv maqsadlarga erishganlik darajangizni aniqlang. Yuqoriroq bal olishga intilsangiz ushbu mavzu matniga murojaat qiling.

Quyidagi jadvaldan foydalanib (jadval keyingi betda), o'qitishga uch xil yondashishni taqqoslang.

3. Klaster uslubi yordamida o'qitishga texnologik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang. Ularni aylana atrofiga markazdan uzoqlashtirish tartibida (soat strelkasi yo'nalashida) yozib chiqing.

O'qitishga uch xil yondashish

Ko'rgazmali tushuntirish (an'anaviy)	Texnologik	Izlanuvchan
Axborotni o'qituvchidan talabaga o'tkazish.	Tizimli yondoshuv asosida o'quv jarayonini loyihalash.	Muammolarni hal qilish.
O'quv maqsadlarining noaniqligi. Suhbat va hikoyaga ko'proq e'tibor	O'quv maqsadlarini mumkin qadar aniqlashtirish va ularni talaba hatti-harakatini	O'quv ishlariga oid izlanishlar olib borish. Fanlararo bog'lanish. Ilmiy

berish	anglatuvchi fe'llarda ifodalanishi.	taxminni olg`a surish va uni tekshirish.
<p>Ta'riflashga ko`proq e'tibor berish, ma'lum darajada aqidaparast-lik. Axborotni o`z hohishiga qarab yodlash.</p> <p>Doimo eslab qolishga undash, xotirada axborotlarni yig`ilishi.</p> <p>Bilish bosqichlarini alohida olingan fanlar tashkil qilishi, yaxlitlikning etishmasligi.</p> <p>Mashg`ulotlar yuqori ilmiy salohiyotda va talabaning mutaxassisligi bilan bog`lanmagan tarzda olib borilishi.</p>	<p>Talabalarni ularning hatti-harakat orqali o`qitish.</p> <p>Sozlovchi qaytuvchan aloqa.</p> <p>Shakllanuvchi va to`planuvchi baholash.</p> <p>Mezoniyl nazorat (test).</p> <p>Bilim va ko`nik-malarning to`la o`zlashtirilishi.</p> <p>Belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlanishi.</p> <p>O`qitishning samaradorligi.</p>	<p>Ma'lumotlar yig`ish.</p> <p>Modellash,tajriba o`tkazish.</p> <p>Ijodiy,tanqidiyl fikr yurgizish.</p> <p>Ko`p mezoniyl, asoslanganlik.</p> <p>qaror qabul qilish.</p> <p>Rollarni ijro etish.</p> <p>Shaxsiyl fikr ma'nosini izlash.</p> <p>Aql-zakovat, javobgarlik, ma'naviyl va ahloqiy sifatlarni rivojlantiruvchi yangiliklarga sezgir bo`lish.</p>

### Nazorat uchun test topshiriqlari.

I. Ta'riflarning qaysi olimga tegishli ekanligini aniqlang.

- |             |  |
|-------------|--|
| 1. Sakomoto | A. O`qitish texnologiyasi psixologiya fani yutuqlarining pedagogik amaliyot- da qo`llanishidan iborat.                     |
| 2. Skinner  |  |
| 3. Golbrayt | B. O`qitish texnologiyasi-ilmiyl va boshqa bilimlardan tizimli ravishda amaliyl masalalarni hal etishda qo`llashdan iborat |
- V. Pedagogik texnologiya - «ta'limni tizimlashtirish» yoki «sinfdagil o`qitishni tizimlashtirish» kabi g`oyalarni pedagogikaga tadbiiq etishdan iborat.

II. Pedagogik texnologiyaga YuNESKO tomonidan berilgan ta'rifni yozing.

---



---



---

III. Pedagogik texnologiyaning vujudga kelish sabablarini ko`rsating.

a) \_\_\_\_\_

---

b) Didaktik qoidalari o`ta konstruktiv bo`lmay, zamon talabidan orqada qolganligi.

v) \_\_\_\_\_

---

IV. Pedagogik texnologiya rivojlanish bosqichlari ketma-ketligini

A. Darslik va qo`llanmalar.  
B. O`qituvchining tajribasi (so`zi)

belgilang.


V. O'rgatuvchi mashinalar.

V. Muvofiglikni aniqlang.

1. Pedagogik texnologiya.
2. Uqitishning odatdagi usuli.

- A. Maqsadning aniqligi.
- B. Natijaning kafolatlanganligi.
- V. Takrorlanuvchan uquv sikli.
- G. Tezkor qaytuvchan aloqa.
- D. Tuzatishlar kiritish.

VI. Pedagogik texnologiya blok-sxemasini to'ldiring.



VII. Topshiriqlar talabalarning qaysi turdagi o'quv faoliyati uchun tuziladi?

- A. Joriy.
- B. Oraliq.
- V. Yakuniy.
- G. Mustaqil o'zlashtirish.
- D. Hammasi to'g'ri.

VIII. Pedagogik texnologiyaning sobiq ittifoq, jumladan O'zbekistonda uzoq yillar joriy etilmaganligining sabablari uning: a) \_\_\_\_\_ va b) \_\_\_\_\_ tushunchalariga asoslanganligi, bulardan o'quv jarayonida foydalanish ta'qiqlanganligidir.

IX. O'zbekistonda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishga undovchi hujjatlar.

- A. Konstitutsiya.
- B. Ta'lim to'g'risidagi qonun.
- V. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
- G. Fuqarolik kodeksi.

To'g'ri javoblar

Topshiriqlar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX
Javoblar	1-V, 2-A, 3-B	9-beta	a) didaktik qoidalarni AqShda tarqalmaganligi. b) ta'lim jarayoniga o'rgatuvchi mashinalarni kirib kelganligi	1-B, 2-A, 3-V	1-ABVGD, 2-0	a) topshiriqlar tuzish; b) o'quv jarayoni	D.	a) test, b) bixeviorizm	B, V

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

- Саидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар.–Т.:«Молия», 2003.–168 б.
- Саидахмедов Н. Ўқитишнинг педагогик тизимдаги фаолияти ЎФ Халқ таълими, 1993, №6-7. 9-12 б.
- Кларин М.В. Инновационные модели учебного процессов современной зарубежной педагогики. Дисс... докт. пед. наук.– М., 1994. -346 с.
- Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари.-Т.: «Ўқитувчи», 2004. -102 б.
- Ишматов қ. Педагогик технологиялар.Ўқув қўлланма. Наманган 2004 й.

## **2-Ма'руза**

**Mavzu: Pedagogik maqsadlarni belgilash texnologiyasi.**

**Reja:**

- 1. O`quv maqsadlarini belgilash usullari.**
- 2. Pedagogik maqsadlar taksanomiyasi**
- 3. O`quv maqsadlarini tanlash**

**Talaba bu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:**

-o`quv maqsadlarini an'anaviy usulda belgilashni va uning kamchiliklarini tushuntiradi;

-pedagogik texnologiyada o`quv maqsadlarini belgilash usulining mohiyatini biladi;

- pedagogik texnologiyada o`quv maqsadlarini aniqlash sohalarini sanaydi;

-taksonomiya so`zining ma'nosini tushunishini namoyish qiladi;

-Blum taksonomiyasidagi o`quv maqsadlarining toifalarini sanaydi va har bir toifaning ma'nosini qisqacha tushunirib beradi.

***Kalitli So`zlar:***

***Verbal – ifodali, og`zaki.***

***Gumanizm – 1) insonning insonga bo`lgan muhabbati, uning qadrini hurmat qilish, kishi manfaatlarini uchun qayg`urish g`oyalari bilan sug`orilgan va kishilar o`rtasidagi tenglik, halollik, insoniy munosabat tamoyillariga asoslangan duyoqarash; 2) insoniylik va insonparvarlik, insonlarning bunyodkorligiga ishonchi.***

***Didaktika*–ta`lim va o`qitish nazariyasi hamda o`qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi.**

***Izohlash, tushuntirish – og`zaki izoh, yoritilishi lozim bo`lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.***

***Kognitiv*–bilish jarayoni.**

***Leksiya (ma'ruza) –odatda oliy o`quv yurtida biror fan mazmunini og`zaki bayon qilishga asoslangan o`quv jarayoni, metodi.***



**Mashq** – o'zining bilimlarini chuqurlashtirish hamda tegishli malaka va ko'nikmalar hosil qilish maqsadida og'zaki va yozma harakatlarni takroran amalga oshirish.

**Metod** – 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli; 2) harakat qilish usuli, tarzi.

**Metodika** – biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llanadigan metodlar jami.

**Metodologiya** – 1) dunyoni ilmiy bilish metodi haqidagi ta'limot; 2) biror fanda, shu jumladan pedagogikada qo'llanadigan metodlar jami.

**Ta'lim** – 1) shaxsning jismoniy va ma'naviy shakllanishining yagona jarayoni, sotsial etalonlarning ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo'naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g'oyaviy-axloqiy qadr, malaka, ko'nikma, axloq me'yorlariga qaratilgan jamiyat a'zolarining ta'lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil tizim.

### ***Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi***

**Birinchi savolda:** O'quv maqsadlarini belgilashning odatdagi usullari haqida tushuncha berish, o'quv maqsadi nima?, O'qitish maqsadi taksomaniyalari haqida tushuncha berish, Kognitiv soha, psixomotorik o'rganish sohasi va affektiv o'rganish sohalari to'g'risida ma'lumot berish, pedagogik amaliyotda mustahkam o'rin olgan o'quv maqsadlarini aniqlashning an'anaviy usullari yoritib berish.

**Ikkinchi savolda:** . Pedagogik maqsadlar taksonomiyasi haqida ma'lumotlar berish, Taksonomiya tushunchasiga ta'rif berish, o'quv maqsadlari taksonomiyasi jahon pedagogikasida fundamental izlanishlar natijasida vujudga kelganligi haqida fikringizni bildiring, butun jahon pedagogikasida keng tarqalgan Bluum taksonomiyasi haqida tushuncha,

**Uchinchi savolda:** O'quv maqsadlarini tanlash to'g'risida batafsil ma'lumot berish. O'rganish maqsadlarini qanday tanlash lozim?, qanday qilib o'qitish mazmunlarini ishlab chiqish mumkin?

### **Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar**

1. Nazorat testlarini echib, belgilangan o'quv maqsadlariga erishganlik darajangizni aniqlang. Agar yuqoriroq ball olmoqchi bo'lsangiz, mavzuga matniga murojaat qiling.

2. Mutaxassislik bo'yicha kollej o'quv rejasidagi maxsus (umumtexnik) fanlarning biridan beshta mavzu bo'yicha aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini B. Blum taksonomiyasi bo'yicha belgilang.

3. B. Blum taksonomiyasi bo'yicha quyidagi treningda o'zingizni sinab ko'ring

Vaziyatlar	Javobni tanlang
Talaba gazeta sahifasidagi dalillar orasidagi nomuvofiqlikni aniqladi.	A. Bilish
Talaba gazeta sahifasida bayon etilgan dalillar bilan tanish ekanligini bildirdi.	V. Tushunish
Talaba insho yozishda gazetadagi dalillardan foydalandi.	D. qo'llash
Talaba gazetada yozilgan dalillarni umumlashtira oladi.	E. Tahlil
Talaba gazeta sahifasidagi maqola mazmunini tushuntira oladi.	F. Sintez
Talabaning gazetadagi maqolaga nisbatan tanqidiy fikri bor.	G. Baholash

Nazorat uchun test topshiriqlar.

I. O'quv maqsadlarini an'anaviy usulda belgilashning kamchiliklarini ko'rsating.

- A. Faqat o'quv material mazmunini, o'qituvchi va talaba faoliyatini ifodalaydi, aniq emas.
- B. O'quv material mazmuni, o'quv dasturi mazmuni, dars mazmunini ifodalaydi, aniq emas.
- V. O'qitish natijalarini o'lchab bo'lmaydi.
- G. Talaba tafakkurini rivojlantirmaydi.
- D. Hamma javob to'g'ri.

II. Pedagogik texnologiyada o'quv maqsadlari talabaning a) \_\_\_\_\_ kuzatiladigan hatti-harakatini ifodalovchi b) \_\_\_\_\_ da ifodalanadi.

III. Pedagogik texnologiyada o'quv maqsadlarini aniqlash sohalari.

- A. Kognitiv.
- B. Tushunish.
- V. Psixomotor.
- G. Tahlil.
- D. Affektiv.

Javoblar: 1-G,B,D; 2-A,B,D; 3-B,V,G; 4-A,V,D.

IV. Ob'ektlarni, ularning tabiiy o'zaro bog'liqligiga asoslanib va toifalari murakkablashib boradigan ketma-ketlikda joylashtirib turkumlash va tizimlashtirish \_\_\_\_\_ deb ataladi.

V. Blum taksonomiyasi o'quv maqsadlarini belgilashning kognitiv (bilish) sohasini ifodalaydimi?

- A - ha.
- B – yo'q.

VI. Blum taksonomiyasi toifalarining ketma-ketligini aniqlang.

- A. Bilish.
- B. Tushunish.
- V. qo'llash.
- G. Baholash.
- D. Sintez
- E. Tahlil.

VII. Identifikatsiyalanuvchi o'quv maqsadlariga bu o'qitish \_\_\_\_\_ o'lchash mumkin bo'lgan o'quv maqsadlaridir.

To'g'ri javoblar:

Topshiriqlar	I	II	III	IV	V	VI	VII
Javoblar	2.	a) tashqaridan b) fe'llarda	4.	Taksonomiya	A.	1-A, 2-B, 3-V, 4-D, 5-E, 6-G	natijalarinian iq

## ADABIETLAR.

Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.–T.:«Moliya», 2003.–168 b.

Saidaxmedov N. O`qitishning pedagoik tizimdagi faoliyati G`G` Xalq ta'limi, 1993, №6-7. 9-12 b.

Klarin M.V. Innovatsionno`e modeli uchebnogo protsessov sovremennoy zarubejnoy pedagogiki. Diss... dokt. ped. nauk.– M., 1994. -346 s.

Yo`ldoshev J.G`, Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: «O`qituvchi», 2004. -102 b.

Ishmatov q. Pedagogik texnologiyalar.O`quv qo`llanma. Namangan 2004 y.

## 3-Ma'ruza

**Mavzu: Etalon - maqsadlarini shakllantirish va ularni nazorat test topshiriklariga aylantirish. Test topshirik formalari.**

### Reja

- 1. O`quv maqsadlarini tashqaridan kuzatiladigan harakatlar orqali ifodalash.**
- 2. Etalon – maqsadlarini yaratish, qo`llash va test topshiriqlariga aylantirish.**
- 3. Topshirik va testlarning harakterli belgilari.**
- 4. Yozma topshirik shakllari.**
- 5. Ogzaki topshirik shakllari.**

**Talaba bu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:**

- bixevioristik o`qitishning mohiyatini biladi;
- o`quv maqsadlarini aniqlashtirish sxemasini tushuntiradi;
- etalon-maqsadni ishlab chiqishni biladi;
- “Talaba matnni o`qishda tanqidiy fikrlash malakasini qo`llaydi” shakldagi umumpedagogik maqsadni aniqlashtirishni uddalaydi;

- o`qituvchilar guruhi tomonidan identifikatsiyalanuvchi maqsadlarni belgilash mazmunini tushuntiradi;

- aniqlashtirilgan o`quv maqsadlarini test topshiriqlariga aylantirishni bilishini namoyish qiladi.

### **Tayanch so`zlar va iboralar**

**Pedagogik texnika** – 1) har bir ta'lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishda samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar majmuasi; 2) har bir ta'lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar.

**Pedagogik texnologiya** – 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani echishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimidir; 2) ta'lim va tarbiya metodlarining u yoki bu to'plamini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan pedagogning uzluksiz, o'zaro shartlangan harakatlari tizimidir; 3) pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan aniq ishlab chiqilgan va qat'iy ilmiy loyihalashtirilgan pedagogik harakat; 4) ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan va texnika hamda inson omillari, uning o'zaro hamkorligi asosida o'qitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir.

**Pedagogik tizim** - shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta'limning o'zaro bog'langan tashkiliy tuzilmasi.

**Pedagogik faoliyat** – ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

**Pedagogik ixtisoslik** – ta'lim natijasi o'laroq bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat bir kasbiy guruh doirasidagi faoliyat turi.

**Pedagogik ixtisoslashish** – pedagogik ixtisoslik doirasidagi faoliyatning bir turi.

**Pedagogik malaka** – muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

**Pedagogik masala** – pedagogik jarayonning asosiy birligi, o'ziga xos tizimidir. U voqelikni bilish va qayta yaratish zaruriyati bilan bog'liq tafakkur qilinadigan pedagogik vaziyatdir. Ta'lim qatnashchilarining ma'lum bir maqsadini ko'zlagan ta'lim va tarbiyadagi moddiylashtirilgan vaziyatdir.

**Pedagogik mahorat** – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish (A.S. Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

### **Mashg`ulot savollariga javob berish dasturi**

**Birinchi savolda:** O`quv maqsadlarini to`la-to`kis ifodalash texnologiyasi bixeviorizm g`oyasi va uslublari ta'sirida vujudga kelganligi to`g`risida tushuncha berish. O`quv maqsadlarini to`la identifikatsiyalash to`g`risida ma'lumot berish. Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari batareyasini ishlab chiqish.

**Ikinchi savolda:** Etalon - maqsadlarni yaratish, qo'llash to'g'risida tushuncha berish. O'quv maqsadlarini test topshiriqlariga aylantirish borasida fikrlar bildiriladi.

Uchinchi savolda: Topshiriq va testlarning harakterli belgilari haqida umumiy ma'lumot beradi. Topshiriqlar natijalarni o'lchash va baholash maqsadida ongli ravishda qo'yilgan talablar mohiyati tushuntiriladi. Topshiriq va testlarning muhim mezonlariga qisqacha izoh beriladi. Og'zaki va yozma topshiriqlar shakllariga misollar keltiriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar**

1. Bixeviorizmga oid qo'shimcha ma'lumotni adabiyotdan o'qib, konspektlashtiring.

2. Mutaxassislik bo'yicha kasb-hunar kolleji o'quv rejasidagi maxsus (umumtexnik) fan bo'yicha 10 ta aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini tuzing.

3. Nazorat testlarini echib, belgilangan o'quv maqsadlariga erishganlik darajangizni aniqlang. Yuqoriroq ball olmoqchi bo'lsangiz mavzu matniga murojaat qiling.

Nazorat uchun test topshiriqlari

Bixeviorizm inson psixikasini o'rganish faqat uning tashqaridan kuzatish imkoniyati bo'lgan a) \_\_\_\_\_ va b) \_\_\_\_\_ni tahlil qilishdan iborat deb tasavvur qiladi.

Bixevioristik o'qitish sxemasini ko'rsating.

A.  $S \rightarrow P \rightarrow R$

B.  $S \rightarrow R \rightarrow P$

Г.  $R \rightarrow S \rightarrow P$

Д.  $P \rightarrow R \rightarrow S$

Bixevioristik usulda o'qitishni talabalarga kasb o'rgatish jarayonida qo'llash mumkinmi?

A) Ha;

B) Yo'q;

V) Bilmayman.

Etalon - maqsadning tarkibiy qismlari: 1) sharoit; 2) \_\_\_\_\_; 3) baholash mezon.

O'quv maqsadlarini aniqlashtirishda \_\_\_\_\_ foydalaniladi.

Agar o'quv maqsadlarini o'ta aniqlashtirish imkoniyati bo'lmasa, \_\_\_\_\_ toifalaridan foydalaniladi.

**«Ob-havo xaritasida qo'llaniladigan belgilaridan foydalanish» mavzusi bo'yicha o'quv maqsadlarini aniqlashtirish ketma-ketligini toping.**

A. Ob-havo xaritasida qo'llaniladigan belgilarni eslaydi;

B. Belgilarni xaritada ko'rsatadi;

V. Xaritadagi belgilardan foydalanib, ob-havo ma'lumotini tuzadi;

- G. Belgilardan foydalanib xaritani o`qiydi;  
 D. Belgilardan foydalanib ob-havo xaritasini tuzadi.

**O`quv maqsadlarini kimlar tuzishi maqsadga muvofiq?**

- A) direktor, direktor o`rinbosari, o`qituvchi;  
 B) o`qituvchi, uslubchi, fan bo`yicha mutaxassis;  
 V) o`qituvchi, bosh usta, ustalar.

**O`quv maqsadlarini aniqlashtirishda « \_\_\_\_\_ » usulidan foydalanishi ijobiy natija beradi.**

**Identifikatsiyalangan o`quv maqsadlari bu:**

- A) unga erishilganlikni aniq o`lchash mumkin bo`lgan o`quv maqsadlari;  
 B) talaba faoliyati bilan ifodalangan o`quv maqsadlari;  
 V) o`qituvchi faoliyati bilan ifodalangan o`quv maqsadlari;  
 G) fan mavzusi bo`yicha belgilangan o`quv maqsadlari.

**O`quv maqsadlarini test topshiriqlariga aylantirish ketma-ketligini ko`rsating.**

- A) aniq harakat turlarini tanlash;  
 B) harakatni ifodalovchi fe'lni tanlash;  
 V) test topshiriqlarini tuzish;  
 G) o`quv maqsadlarini aniqlashtirish.

Topshiriqlar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI
Javoblar	A) hatti-harakatni B) nutqni	B	A	Kutiladigan natija	fe'llarda	Blum taksonomiyasining учқоғи тойфаларидан	1-A, 2-B, 3-G, 4-D, 5-V	B	«miya hujumi»	A, G	1-B, 2-A, 3-V

Foydalanilgan adabiyotlar:

a) asosiy adabiyotlar.

1. Bepalko V.P., Tatur Yu.G. Sistemno-metodicheskoe obespechenie uchebno-vospitatelnogo protsessa podgotovki spetsialistov. -M.: Vo`ssh. shk. 1989. -144 s.

2. Klarin M. V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse.- M: Znanie. 1989. - 80 s.

3. Farberman B. L. Progressivno`e pedagogicheskie texnologii. -T.: IPVSSSh. 1999. - 84 s.

b) qo`shimcha adabiyotlar.

G`oziev E. Tafakkur psixologiyasi. T.: O`qituvchi. 1990- 184 b.

## 4-Ma'ruza

### Mavzu: Test shakllari va ulardan foydalanish.

#### Reja

1. Testning rivojlanish tarixi va uning ijobiy tomonlari.
2. Test topshiriqlarining ko`rinishlari va shakllari.
3. Me'zoniyl yo`naltirilgan va yutuqlar testi.

Talaba bu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:

- test tushunchasining vujudga kelishi va rivojlanish tarixini biladi;
- AqSh da “testshunoslik” ni tashkil etilishi to`g`risida ma'lumotga ega ekanligini bildiradi;
- O`zbekistonda testshunoslikni joriyl etilishi va uning istiqbolini tushunganligini namoyish qiladi;
- test topshiriqlarining ko`rinishlari va shakllarini bilishini namoyish qiladi;
- me'zoniyl yo`naltirilgan va yutuqlar testini farqlay oladi;
- turli test topshiriqlarini tuzadi.

#### **Tayanch so`zlar va iboralar**

Test, AqSh da testshunoslik, testning afzalliklari, O`zbekistonda testshunoslik, yopiq test, ochiq test, ketma-ketlikni aniqlovchi test, me'zoniyl yo`naltirilgan test.

#### **Mashg`ulot savollariga javob berish dasturi**

Birinchi savolda: test tushunchasining vujudga kelishi va rivojlanish tarixi haqida tushuncha berish, test sinovlarining asosiy maqsadi yoritiladi, pedagogik testlar va ularning afzalliklari yoritilib beriladi.

Ikinchi savolda: Test turlari va test topshiriqlari shakllari to`g`risida tushuncha beriladi, testlarni turkumlashda ularning qo`llash maqsadi va vazifalari yoritib beriladi, ochiq (tugallanmagan) testlarga va Yopiq topshiriqlarga ta'rif beriladi, Muvofiqlikka oid topshiriqlar va ketma-ketlikni to`g`riligini aniqlashga oid testlar ishlab chiqiladi.

Муस्ताқил таълим учун топшириқлар

1. Mutaxassislik bo`yicha kollej o`quv rejasidagi maxsus (umumtexnik) fandan 10 ta turli shakl va ko`rinishdagi test topshiriqlar tuzing.

#### **Nazorat uchun test topshiriqlar**

I. Test sinovi birinchi marta a) \_\_\_\_\_ yilda Buyuk Britaniyada b) \_\_\_\_\_ tomonidan talabalar bilim darajasini tekshirish uchun qo`llanilgan.

II. Test sinovi dastlab psixologiya fani doirasida rivojlanib bordi.

A - Ha, B - Yo`q, V - Bilmayman.

III. Test sinovini rivojlanishiga hissa qo`shgan olimlar:

- A. Gamelton
- B. Torndayk.
- V. Grin.
- G. Rassel.
- D. Hammasi to`g`ri.

IV. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining \_\_\_\_\_ da qabul qilgan qaroriga binoan mamlakatimizda test sinovlaridan foydalanishga keng yo`l ochildi.

V. Test topshiriqlari guruxlarini aniqlang.

- A. Psixologik testlar.
- B. Pedagogik testlar.
- V. Intellektuellik koefitsentini aniqlovchi testlar.
- G. Muayyan kasbga yaroqlilikni aniqlovchi testlar.
- D. Orfografik testlar.
- E. O`qilgan matnни tushunishga oid testlar.

VI. Texnik fanlarni o`qitishda pedagogik test topshiriqlarning quyidagi shakllardan ko`proq foydalanish mumkin:

- A. Ochiq topshiriqlar.
- B. \_\_\_\_\_
- V. Bir necha to`g`ri javobli yopiq topshiriqlar.
- G. \_\_\_\_\_
- D. \_\_\_\_\_

VII. Muvofiqlikni aniqlang.

- 1. Yutuqlar testlari. A. O`quv jarayonida qo`llanadi.
- 2. Mezoniy yo`naltirilgan testlar. B. Olimpiada, tanlov, kirish imtixonlarida qo`llanadi.

VIII. Mezoniy yo`naltirilgan testlar foydalanishga yaroqli bo`lishi uchun R(0,5, ya'ni sinaluvchilarning 50 foizi topshiriqlarning \_\_\_\_\_ ga to`g`ri javob berishlari zarur.

IX. Yutuqlar test topshiriqlarining ajratish qobiliyati \_\_\_\_\_ bit bo`lganda, u foydalanishga yaroqli bo`lib hisoblanadi.

To`g`ri javoblar

Topshiriqlar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX
Javoblar	a) 1864; b) Fisher	A.	D.	5 fevral 1993 yil	A, B, V, G.	B. Bitta to`g`ri javobli yopiq test. G. ketma-ketlikni aniqlovchi test. D. O`zaro bog`liqlik (muvo-fiqlikni aniqlovchi test)	1-B, 2-A	50 foiziga	2500

Foydalanilgan adabiyotlar:



a) asosiy adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasida oliy o'quv yurtlari uchun talabalarni test usulida saralash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 1993 yil 5 fevral (Namangan haqiqati 1995 y. 6 fevral).

Farberman B.L. Sostavlenie pedagogicheskix testov. T.: TADI. 1992. - 74 s.

Farberman B.L. Metodo` razrabotki i primeneniye pedagogicheskix testov. T.: RUMTs. 1995. - 116 s.

Vendrovskaya R. B. Testo` v amerikanskoy sisteme obrazovaniya. G`G` Pedagogika, 2001, №2. S. 96-102.

## **№ 5 Ma'ruza**

### **Mavzu: Test topshiriqlarini tuzish metodikasi**

#### **Reja:**

- 1. Test topshiriqlariga qo'yiladigan didaktik talablar.**
- 2. Test rejasini ishlab chiqish.**
- 3. Test tuzishdagi eng xarakterli xatoliklarning tahlili.**

#### **Talaba bu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:**

- test topshiriqlarini tuzishga oid didaktik talablarni sanaydi va ularning qisqacha mazmunini tushuntira oladi;
- test tuzish rejasini ishlab chiqish bosqichlarini biladi;
- mustaqil ravishda test tuzish rejasini ishlab chiqa oladi;
- test tuzuvchilarning eng xarakterli xatoliklarini bilishini ko'rsatadi;
- tuzilgan test topshiriqlarini empirik usulda sinash malakasiga ega ekanligini bildiradi;

#### **Tayanch so'zlar va iboralar**

O'quv maqsadiga muvofiqlik, material ahamiyatliligi, ilmiy aniqlik, izchillik, to'kislik va uyg'unlik, o'zlashtirish darajasiga ko'ra tabaqalashtirish, samaradorlik, til ravonligi va aniqligi, bir ma'nolilik, vaqtning qat'iy belgilanishi, ixchamlik, murakkablik me'yori, to'g'ri javobda qo'shimcha belgilarning mavjud emasligi, shaklan va mazmunan o'zaro bog'liqlik, test rejasini, test tuzishdagi eng xarakterli xatoliklar

#### **Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi**

**Birinchi savolda:** Test topshiriqlariga qo'yiladigan didaktik talablar to'g'risida tushuncha beriladi. Test topshiriqlariga qo'yilgan 14 ta didaktik talablarga (O'quv maqsadiga muvofiqlik, material ahamiyatliligi, ilmiy aniqlik, izchillik, to'kislik va uyg'unlik, o'zlashtirish darajasiga ko'ra tabaqalashtirish, samaradorlik, til ravonligi va aniqligi, bir ma'nolilik, vaqtning qat'iy belgilanishi, ixchamlik, murakkablik me'yori, to'g'ri javobda qo'shimcha belgilarning mavjud emasligi, shaklan va mazmunan o'zaro bog'liqlik) qisqacha izoh beriladi,

**Ikinchi savolda:** O`quv fan bo`yicha test topshiriqlari tuzishni uning rejasini ishlab chiqish to`g`risida ma`lumot berish. Test topshiriqlarida aks ettirilishi zarur bo`lgan muayyan masalalar ro`yxati (test spetsifikatsiyasi) ishlab chiqish.

**Uchinchi savolda:** Test tuzishdagi eng xarakterli xatolarning tahlili bo`yicha tushuncha berish. (1. Yopiq test topshiriqlariga taklif qilinayotgan javoblar miqdorining kamligi. 2. Testda oddiy dalillar, voqealarning sanalari, atamalar, ism-shariflar, ya'ni faqat eslab qolishni talab etadigan topshiriqlarning ko`pligi. 3. Test topshiriqlarining shu fan bo`yicha darslikka o`ta bog`liq bo`lib qolganligi. 4. Testda shu o`quv fani asosiy qoidalarini umumlashtiradigan majmualari xarakterdagi topshiriqlarning yo`qligi. 5. Taklif qilinadigan javoblarning kattaligi. 6. Test topshirig`i shartlarini (savollarini) ta`riflashdagi ko`p so`zlilik. 7. Shunday test topshiriqlari ham uchraydiki, ularga to`g`ri javob topish uchun kuzatuvchining o`zi kifoya qiladi. 8. Ta`riflashdan ikki xil ma`no chiqishi yoki uning aniqmasligi.)

### **Mustaqil ta`lim uchun topshiriqlar**

Farberman B.L. Progressivno`e pedagogicheskie texnologii kitobidan 46-54-betlarni o`qib konspektlashtiring.

Mutaxassislik bo`yicha kasb-hunar kolleji o`quv rejasidagi maxsus (umumtexnik) fan bo`yicha 10 ta test topshiriqni turli o`zlashtirish darajalariga muvofiq holda tuzing.

Nazorat testlarini echib, belgilangan o`quv maqsadlariga erishganlik darajangizni aniqlang. Yuqoriroq ball olmoqchi bo`lsangiz mavzu matniga murojaat qiling.

### **Nazorat uchun test topshiriqlar**

- |   |  |
|---|--|
| I. Bilimlarni o`zlashtirish sifatini nazorat qilishning an'anaviy uslublaridagi kamchiliklar. | A. Baholashdagi sub'ektivlik,<br>B. Imtixon oluvchining talaba bilan muloqotda bo`la olmasligi,<br>V. Nazorat savollari tuzishdagi qiyinchiliklar,<br>G. Baholash shkalasining aniqmasligi,<br>D. Bilimlarni nazorat qilish, tanlash xarakteriga ega ekanligi,<br>E. O`qituvchilar vaqtining ko`p sarflanishi,<br>J. Kompyuter qo`llashning qiyinligi,<br>Z. Javoblarni ta`riflashning cheklanganligi. |
| II. Test rejasini ishlab chiqish ketma-ketligini aniqlang.                                    |  |
| A. Test topshiriqlarini sonini aniqlash;  |  |
| B. Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlarini belgilash;   |  |
| V. Test topshiriqlarini fan bo`limlari (boblari) bo`yicha ulushlarini aniqlash;               |  |
| G. Test topshiriqlarini o`zlashtirish darajalariga muvofiq holda taqsimlash.                  |  |

### **III. Test topshiriqlarini kimlar tuzadilar?**

- A. Fan o`qituvchilari va talabalar;
- B. Tajribali o`qituvchilar va metodistlar;
- V. Uslubiy birlashma boshliqlari;
- G. Fan o`qituvchisi va direktor o`rinbosari.

### **IV. Bilimlarni o`zlashtirish darajalari ketma-ketligini aniqlang.**

- A. Bilim-tanishuv;
- B. Samarador bilimlar;

V. Bilim-nusxa;

G. Ijodiy daraja.

**V. Test tuzishdagi eng xarakterli xatoliklarni sanang.**

A. Yopiq test topshiriqlarida taklif etilayotgan javoblar sonining ozligi;

B. Faqat bilish darajasiga oid testlarning ko'pligi;

V. \_\_\_\_\_

G. To'g'ri javoblar matnining kattaligi;

D. \_\_\_\_\_

E. Test savollarining ixcham va lo'nda bayon etilmaganligi;

Yo. \_\_\_\_\_

J. \_\_\_\_\_

To'g'ri javoblar

Topshiriqlar	I	I	II	I	V	I	V
Javoblar	A, G, D, E, J	1-B, 2-A, 3-V, 4-G	B.		1-A, 2-V, 3-B, 4-G		V. Darslikka o'ta bog'liq bo'lib qolganlik; D. To'g'ri javoblarning kattaligi (beso'naqayligi) E. To'g'ri javobni navbatdagi ifodalanganligi; J. Ta'riflardan ikki xil ma'noni ang'lanishi

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. a) asosiy adabiyotlar
2. Farberman B.L. Progressivno'e pedagogicheskie texnologii. T.:IPVSSSh.1999. - 84 s.
3. Farberman B.L., Asomov D.K. Pedagogik testlar va talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting usuli. T.: RO'UI. 1995. -102 b.

### № 6. Ma'ruza

#### Mavzu: Pedagogik texnologiyaning tamoyil va qoidalari

#### Reja:

1. Takrorlanuvchan o'quv sikli.
2. Pedagogik texnologiya tamoyillari.
3. Pedagogik texnologiya qoidalari va ularni amalga oshirishning o'ziga xosligi.

#### **4. Ijodiy izlanuvchanlik darajasiga oid pedagogik texnologiya.**

##### **Talaba bu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:**

- Me'zoniyl va boholashning mazmunini tushuntiradi;
- O`qituvchi test topshirig`i tuzish va undan foydalanishni uddalaydi;
- Takrorlanuvchan o`quv siklining sxemasini chizadi va ma'nosini tushuntiradi;
- Pedagogik texnologiya tamoyillarini sanaydi va ma'nosini tushuntiradi;
- Pedagogik texnologiya qoidalarini sanaydi va ma'nosini tushuntiradi;
- Pedagogik texnologiya qoidalarining chegaralanganligini va ularni bartaraf qilish yo`llarini tushuntiradi;

##### **Tayanch so`zlar va iboralar**

Me'zoniyl baholash, o`qituvchi (o`rgatuvchi) test, takrorlanuvchan o`quv sikli, PT tamoyillari, PT qoidalarini, PT qoidalarining o`ziga xosligi, ijodiy izlanuvchanlik darajasiga oid PT.

##### **Mashg`ulot savollariga javob berish dasturi**

**Birinchi savolda:** To`la o`zlashtirish texnologiyasi haqida tushuncha berish. Takrorlanuvchan o`qitish sikli to`g`risida qisqacha fikr aytilishi kerak. Takrorlanuvchan o`quv siklining tarkibiy tuzilishi haqida fikr bildirish.

**Ikinchi savolda:** Pedagogik texnologiya tamoyillari haqida umumiy tushuncha berish. (1. Talabalar bilish faoliyatini boshqaruvchi qurilmalar tizimining qat'iy ketma-ketligini yaratish. 2. Talabalar bilish faoliyatining har bir qismi bo`yicha o`quv jarayonini boshqarishni sikllar bo`yicha tashkil qilish. 3. O`quv materialini uzatishda, uning mohiyatini ochib berish uchun alohida qadamlardan foydalanish. 4. O`zlashtirishning individual sur'ati. 5. Beshinchi tamoyil, talaba shaxsining ayrim hislatlari (tezkor reaksiya, yo`nalganlik va h.k.) ni rivojlantiruvchi fanlarni o`qitishda o`quv materialini dasturlab uzatadigan maxsus texnik vositalardan foydalanishdan iborat. 6. Bilimlarni tabaqalashgan holda mustahkamlash qoidasi xar bir o`quv qadami (birligi) turli xil mazmun va jihatlarida takrorlanadi hamda, puxta o`ylab tanlangan bir necha misollarda ko`rsatiladi. 7. Topshiriqlarni asta-sekin qiyinlashib borishi. Bu tamoyil tushuntirishda didaktikaning osondan-qiyinga, soddadan-murakkabga tomon yurish tamoyiliga muvofiqdir.)

**Uchinchi savolda:** Pedagogik texnologiyaning qoidalarini (1. «Ekvivalentli amaliyot» qoidasi. 2. «Analogik amaliyot» qoidasi. 3. «Natijani bilish» qoidasi. 4. «Ijodiy mustahkamlovchi reaksiyalar» qoidasi) to`risida tushuncha berish.

To`rtinchi savolda: Ijodiy izlanuvchanlik darajasiga oid pedagogik texnologiya haqida ma'lumot berish. Akliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish (P. D. Galperin, N. F. Talizina) nazariyasi haqida fikr bildirish.

##### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar**

Mutaxassislik bo`yicha kasb-hunar kolleji o`quv rejasidagi maxsus (umumtexnik) fanidan 10 ta o`rgatuvchi (o`qituvchi) test tuzing.

Pedagogik texnologiya tamoyillarini didaktika tamoyillari bilan taqqoslab, o'z fikringizni yozma ravishda bayon qiling.

Pedagogik texnologiya qoidalariga nisbatan o'z mulohazangizni yozma ravishda bayon qiling.

Nazorat testlarini echib, belgilangan o'quv maqsadlariga erishganlik darajangizni aniqlang. Yuqoriroq ball olmoqchi bo'lsangiz mavzu matniga murojaat qiling.

#### Nazorat uchun test topshiriqlari


I. Mezoniy o'qitishda joriy va oraliq nazoratlar baholanadimi?

Javoblar: A - Ha; B - yo'q; V - Bilmayman.

II. O'rgatuvchi (o'qituvchi) testlarda to'g'ri javoblar 1) \_\_\_\_\_ va 2) \_\_\_\_\_ qaysi betida joylashganligi ko'rsatiladi.

III. O'rgatuvchi (o'qituvchi) testlar o'quv materialini \_\_\_\_\_ o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

IV. Takrorlanuvchan o'quv sikli tarkibiy tuzilish sxemasini to'ldiring va mazmunini tushuntiring.



V. Muvofiqlikni aniqlang.

- |   |  |
|---|--|
| <p>1. Pedagogik texnologiya tamoyillari</p> <p>2. Pedagogik texnologiya qoidalari</p> | <p>A. Ekvivalentli amaliyot;</p> <p>B. Analogik amaliyot;</p> <p>V. Boshqaruvchi qurilmalar tizimi;</p> <p>G. Natijani bilish;</p> <p>D. Siklik boshqarish;</p> <p>E. O'quv qadamlari;</p> <p>Yo. Individual sur'at;</p> <p>J. Ijobiy mustahkamlovchi reaksiyalar;</p> <p>Z. Maxsus texnik qurilmalar;</p> <p>I. Topshiriqlarni qiyinlashib borishi;</p> |
|---|--|

VI. Pedagogik texnologiya tamoyillari didaktika tamoyillarini inkor qiladimi?

Javoblar: A - Ha; B - Yo`q; V - Bilmayman

VII. Pedagogik texnologiya qoidalari o`zlashtirishning \_\_\_\_\_ darajasida ko`proq amal qiladi.

VIII. P. D. Galperin va N. F. Talizina nazariyasi \_\_\_\_\_ bosqichma-bosqich shakllantirishni ifodalaydi.

IX. R. Gan'e va L. Brigs lar taklif etgan dars tarkibi:

A. Talabalar diqqatini jalb qilish.

B. \_\_\_\_\_ tushuntirish.

V. Faollashtirilgan bilim va ko`nikmalarni \_\_\_\_\_

G. Aniq reaksiya paydo qiluvchi \_\_\_\_\_ tushuntirish.

D. Talabalar reaksiyasini rag`batlantirish.

E. qaytuvchan aloqa o`rnatish.

Yo. Egallangan bilim va ko`nikmalarni \_\_\_\_\_

J. \_\_\_\_\_

X. Reproduktiv ko`nikmalardan ijodiy ko`nikmalarga o`tish varianti \_\_\_\_\_ tomonidan taklif etildi. U quyidagi bosqichlardan iborat:

1. \_\_\_\_\_

2. Reproduktiv darajadagi ko`nikmalarni shakllantirish;

a) Faoliyatni yaxlitligiga va \_\_\_\_\_ ko`rsatish.

b) Ko`nikmalarni soddalashtirilgan sharoitda \_\_\_\_\_ o`zlashtirish.

v) \_\_\_\_\_ tashkil qilish.

3. Izlanuvchan, yaratuvchanlik fazasiga o`tish.

a) Turli xil \_\_\_\_\_ nostandart misollarni echish va

b) Talabalar tomonidan o`z faoliyatlarini o`zlari \_\_\_\_\_ va

To`g`ri javoblar

Topshiriqlar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX
Javoblar	A	1) darslik. 2) qo`llanma	mustaqil.	93-betga qarang	1-D,E,Yo,Z,I; 2-A,B,G,J.	B	Reproduktiv.	Aqliy akatlar.	2.Didaktik maqsadni tushuntirish. 3.Rag`batlantirish. 4. O`quv materialni 7.Rag`batlantirish. 8. Baholash.

1. Foydalangan adabiyotlar:

2. Bepalko V. P., Tatur Yu. G. Sistemno-metodicheskoe obespechenie uchebno-vospitatelnogo protsessa podgotovki spetsialistov. -M.: Vo`ssh. shk. 1989. -144 s.

3. Klarin M. V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. -M.: Znanie. 1989. - 80 s.

4. Farberman B. L. Progressivno`e pedagogicheskie texnologii. -T.: IPVSSSh 1999. - 80.

## Ma'ruza № 7.

### Mavzu: To`la o`zlashtirish texnologiyasi

#### Reja:

1. To`la o`zlashtirish g`oyasining vujudga kelishi va uni rivojlantirilishi.
2. To`la o`zlashtirish texnologiyasining yutuq va kamchiliklari

#### Talaba bu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:

- J.Kerrol va B.Blum taklif etgan to`la o`zlashtirish g`oyasining mazmunini tushuntiradi;
- To`la o`zlashtirish g`oyasida talabalarni qobiliyatlari bo`yicha qanday toifalarga ajratilganligini biladi;
- J.Blok va L.Andersenlar tomonidan taklif etilgan to`la o`zlashtirish uslubini tushunganligini bildiradi;
- To`la o`zlashtirish texnologiyasida qo`shimcha o`quv materialini ishlab chiqishning ahamiyatini biladi;
- To`la o`zlashtirish texnologiyasi bo`yicha mashg`ulotni tashkil etish ketma-ketligini sanaydi;
- To`la o`zlashtirish texnologiyasi bo`yicha material mohiyatini talabalarga tushuntirish ketma-ketligini bilishni namoyish qiladi;
- To`la o`zlashtirish texnologiyasida har bir o`quv birligi doirasida o`qituvchi faoliyati ketma-ketligini tushuntiradi;
- To`la o`zlashtirish texnologiyasining yutuqlari va kamchiliklarini aniqlaydi, ularni odatdagi o`qitish bilan taqqoslaydi, o`zlashtirish texnologiyasining ahamiyatini biladi;

#### Tayanch so`zlar va iboralar

To`la o`zlashtirish texnologiyasi, talabalarni qobiliyatlari bo`yicha toifalash, to`la o`zlashtirish uslubi, mashg`ulotni tashkil etish uslubi, talabalarga to`la o`zlashtirish texnologiyasini tushuntirish ketma-ketligi, har bir o`quv birligini to`la o`zlashtirish texnologiyasining ahamiyati.

#### Mashg`ulot savollariga javob berish dasturi

**Birinchi savolda:** To`la o`zlashtirish g`oyasining vujudga kelishi va uni rivojlantirilishi bo`yicha ma'lumot beriladi, J.Kerrol va B.Blum taklif etgan to`la o`zlashtirish g`oyasining mazmuni qisqacha bayon qilinadi. J.Blok va L.Andersenlar tomonidan taklif etilgan to`la o`zlashtirish uslubi to`g`risida o`z fikrini qisqacha bayon qiladi. To`la o`zlashtirish texnologiyasida qo`shimcha o`quv materialini ishlab chiqishning ahamiyati tushuntiriladi.

**Ikinchi savolda:** To`la o`zlashtirish texnologiyasining yutuq va kamchiliklari. To`la o`zlashtirish texnologiyasi bo`yicha material mohiyatini tushuntiriladi.

#### Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

Nazorat testlarini echib, belgilangan o`quv maqsadlariga erishganlik darajangizni aniqlang. Yuqoriroq ball olmoqchi bo`lsangiz mavzu matniga murojaat qiling.

To`la o`zlashtirish texnologiyasi bo`yicha mashg`ulotni loyihalashni mashq qiling.

**Nazorat uchun topshriqlar.**

I. J. Kerrol va B. Blum taklif etgan to`la o`zlashtirish g`oyasi o`quv maqsadi, \_\_\_\_\_ va yakuniy natijaning o`zaro mosligi asoslangan.

II. Talabalar bilim qobiliyatlari bo`yicha quyidagi uch toifaga ajratiladilar:

A. \_\_\_\_\_ (5 foiz atrofida).

B. \_\_\_\_\_ (5 foiz atrofida).

V. Oddiy qobiliyatlilar (90 foiz atrofida).

III. J. Blok va L. Andersenlar ishlab chiqqan uslubida to`la o`zlashtirish etaloni aniq ifodalanadi, o`quv maqsadlari 1) \_\_\_\_\_ bo`linadi, erishish lozim bo`lgan aniq 2) \_\_\_\_\_ ro`yxati tuziladi, ularga muvofiq holda \_\_\_\_\_ tuziladi, qo`shimcha \_\_\_\_\_ tayyorlanadi.

IV. To`la o`zlashtirish texnologiyasida qadamlar ketma-ketligi aniqlansin.

A. Kirish qismi-o`quv chilarni to`la o`zlashtirish uslubi bo`yicha ishlashga yo`naltirish.

B. O`zlashtirish to`laqonligini aniqlash.

V. Har bir o`quv birligini to`la o`zlashtirilganligini ta`minlash.

G. Xar bir talaba olgan bahoni tezlik bilan izohlash.

A. Joriy tekshiruvlar baholanmaydi.

B. Talaba bilimi bir-biriga nisbatan baholanadi.

V. Talaba bilimi etalon maqsadiga taqqoslanib baholanadi.

G. Har bir talabaga zarur bo`lgan har qanday yordam ko`rsatiladi.

D. A`lo baho (yuqori ball)lar soni chegaralanmaydi.

V. To`la o`zlashtirish texnologiyasi bilan o`qitishda:

Javoblar: 1-A,B,V,G; 2-B,V,G,D; 3-A,V,G,D; 4-A,G,D,V.

VI. To`la o`zlashtirish uslubining o`ziga xos texnologik belgisi o`quv jarayonining \_\_\_\_\_ ga yo`naltirilganligi.

VII. To`la o`zlashtirish uslubining Estoncha varianti (P. U. Kreysberg, E. V. Krull) quyidagilar bilan harakatlanadi:

A. To`la o`zlashtirishni o`quv materialining asosiy qismiga tadbiiq etish.

B. qo`shimcha va rivojlantiruvchi mashg`ulotlarni maxsus tarzda o`tkazish.

V. Talabalarni tashhis testidan faqat ikki marta o`tkazish.

G. Ayrim fanlarnigina to`la o`zlashtirilishini talab qilish.

D. Hamma javob to`g`ri.

VIII. To`la o`zlashtirish texnologiyasini akademik litseyi va kasb-hunar kollejlarda qo`llash ijobiy natija beradi.

A - ha; B - yo`q; V - Bilmayman.

To`g`ri javoblar



Topshiriqlar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII
Javoblar.	Sharoit.	1.Kam qobilyati. 2.Iqtidorli.	1.mayda bo`lamlarga bo`linadi. 2.o`quv maqsadlar. 3.test topshiriqlari. 4.o`quv materiali.	A, V, B, G	3.	yakuniy natija	D.	A.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

a) asosiy adabiyotlar

Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. M. : Znanie. 1989. - 80 s.

Nikandrov N.D. Programmirovannoe obuchenie i idei kibernetiki (Analiz zarubejnogo opita). M. : Nauka. 1970 -206 s.

Farberman B.L. Progressivno`e pedagogicheskie texnologii. T. : IPVSSSh. 1999. -80 s.

### **Ma'ruza № 8.**

**Mavzu: To`la o`zlashtirish texnologiyasini amalga oshirish usullari**

#### **Reja:**

**1. Individual yozma - ko`rsatmali va individual – guruh usulida o`qitish.**

**2. Didaktik konstruktsiyalash usullari**

**Talaba bu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:**

- Individual yozma ko`rsatmali o`qitish tizimining mohiyatini tushuntiradi;
- Individual yozma ko`rsatmali o`qitish tizimini amalga oshirish ketma-ketligini sanaydi;
- Individual-brigada tizimida o`qitishning mazmunini tushuntiradi;
- Individual-brigada tizimida o`qitishning afzalliklarini bilishini namoyish qiladi;
- “tafakkurni modellashtirish”ni tushuntiradi;
- Rollarga bo`lib ijro etiladigan o`yinlarni mohiyatini tushuntiradi;
- Imitatsion-rollarga bo`lib modellashtirishni tushuntiradi;
- Tutashtiruvchi chiziqlar uslubini bilishini ko`rsatadi;

#### **Tayanch so`zlar va iboralar**

Individual yozma ko`rsatmali o`qitish tizimi, individual yozma ko`rsatmali o`qitish tizimini amalga oshirish ketma-ketligi, individual-brigada usulida o`qitish, individual-brigada usulida o`qitishning afzalliklari, tafakkurni modellashtirish, rollarga bo`lib ijro etiladigan o`yinlar, imitatsion-rollarga bo`lib modellashtirish, tutashtiruvchi chiziqlar uslubini.

## Mashg`ulot savollariga javob berish dasturi

**Birinchi savolda:** Individual yozma – ko`rsatmali va individual – guruh usulida o`qitish to`g`risida umumiy tushuncha berish. Individual-brigada tizimida o`qitishning mazmuni tushuntiriladi va afzalliklari sanab o`tiladi.

**Ikinchi savolda:** Mashg`ulotlarni didaktik konstruksiyalash usullari to`g`risida axborot beriladi. Yaponiyalik olimlarning o`qituvchilar bilan hamkorlikda o`quv faoliyatni tashkil etish bo`yicha taklif etgan usullari misol tariqasida keltiriladi. O`qituvchi mashg`ulotlarni pedagogik texnologiya bo`yicha loyihalashda amal qilinadigan qoidalarga izoh beradi.

### Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

Nazorat testlarini echib, belgilangan o`quv maqsadlarga erishganlik darajangizni aniqlang. Yuqoriroq bal olishga intilsangiz ushbu mavzu matniga murojaat qiling.

Mutaxassislik bo`yicha kasb-hunar kolleji o`quv rejasidagi maxsus (umumtexnik) fan bo`yicha 2 soatli darsni «Rollarga bo`lib o`ynaladigan o`yinlar uslubi»dan foydalanib loyihalang.

Pedagogik texnologiyadagi «Didaktik konstruksiyalash»ni o`qitishni tashkil etishning mavjud shakllari bilan taqqoslab, uning ijobiy tomonlarini ajratib ko`rsating.

### Nazorat uchun test topshiriqlar

Individual - yozma-ko`rsatmali o`qitish usulida:

- A. O`quv materialini juda ko`p aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari belgilanadi;
- B. O`quv maqsadlari fan bo`limlarida o`zlashtirish darajalari bo`yicha qat'iy ketma-ketlikda joylashtiriladi;
- V. O`rganiladigan material va o`quv faoliyatining turlari tanlanmaydi, ular o`quv dasturida bayon etiladi;
- G. Yakka tartibda o`qitish ustivorlik qiladi;
- D. Hamma javob to`g`ri.

Individual - yozma-ko`rsatmali o`qitish usulida o`zlashtirish chegarasi \_\_\_ foiz deb belgilanadi.

Individual - yozma-ko`rsatmali o`qitish usulining amalga oshirish ketma-ketligini ko`rsating.

- A. Talabalar o`quv yilining boshida dasturga oid boshlang`ich test topshiradilar;
- B. Dastlabki blok bo`yicha test topshiriladi;
- V. O`qituvchi har bir talaba uchun yozma shaklda ko`rsatma tuzadi;
- G. Talaba o`quv materialini o`zlashtira boshlaydi;
- D. Talaba o`zlashtirib bo`lgan blok bo`yicha test sinovidan o`tadi;
- E. Zarur bo`lsa, o`zlashtirilmagan bloklar takroran o`qitiladi.

Individual - yozma-ko`rsatmali o`qitish uslubi o`zining yuqori darajada a) \_\_\_\_\_ va b) \_\_\_\_\_ ekanligi bilan ahamiyatlidir.

O`qitishning individual - brigada usulida talabalar a) \_\_\_ kishidan iborat, b) \_\_\_\_\_ bo`linib ishlaydilar.

Individual-brigada usulida o`quv materialini o`zlashtirish ketma-ketligini aniqlang.

- A. O`qituvchi tuzgan ko`rsatma bilan talabalarni tanishtirish;
- B. Bir necha ishchi rejalar ishlab chiqish;
- V. O`zlashtirish darajasini mustaqil tarzda tekshirib ko`rish;
- G. Yakuniy test sinovini o`tkazish.

Individual brigada usuli quyidagi holatlarda qo'llaniladi.

A. Guruh bo'yicha o'zlashtirish nihoyatda past bo'lganda;

B. Guruh bo'yicha o'zlashtirish o'rtacha bo'lganda;

V. Guruh bo'yicha o'zlashtirish yoyilmasi juda katta bo'lganda;

G. Guruh bo'yicha o'zlashtirish yuqori bo'lganda.

Javoblar: 1-A,B; 2-A,V, 3-V,G; 4-B,G; 5-A,G

Individual brigada usuli talabalarda...

A. Hamkorlikda ishlash malakasini shakllantiradi;

B. O'zaro yordam hissini vujudga keltiradi;

V. O'zaro nazorat hissini tarkib topadi;

G. Shaxslararo munosabatga moyillikni shakllantiradi;

D. Hamma javob to'g'ri.

«Tafakkurni modellash»da o'qituvchi talabalarning fikrlash yo'nalishlarini avvalo \_\_\_\_\_ va o'quv materialining tushuntirishda unga asoslanadi.

Rollarga bo'lib ijro etiladigan o'yinlarda uning ishtirokchilari (o'qituvchilar) a) \_\_\_\_\_ qiyofasiga kirib, o'quv materialini o'zlashtirishda ularga xos bo'lgan b) \_\_\_\_\_, v) \_\_\_\_\_ va g) \_\_\_\_\_ ni anglatuvchi harakatlarni bajaradilar.

Tutashtiriluvchi chiziqlar uslubi dars a) \_\_\_\_\_ va uni erishish uchun qo'llanilgan didaktik konstruktsiyalarning samaradorligini b) \_\_\_\_\_ tomonidan holisona baholash uchun qo'llaniladi.

O'quv jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish o'qituvchi shaxsiga qanday talablar qo'yadi?

A. Insonparvarlik hislatlarini takomillashtirish;

B. Har bir darsning aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini belgilash va ularni test topshiriqlariga aylantirish;

V. Darsning standartlashgan loyahasini yaratish;

G. O'zi ko'nikib qolgan ayrim dars o'tish usullaridan voz kechish;

D. Kompyuterda ishlashni bilish;

E. Hamma javob to'g'ri.

### To'g'ri javoblar:

Topshiriqlar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
Javoblar	D	85	1-A, 2-B, 3-V, 4-G, 5-D, 6-E	a) aniqligi; b) tushunarli.	a) 4-5; b) guruhlarga	1-A, 2-B, 3-V, 4-G	2	D	avvalo o'zicha tasavvur qiladi.	a) talabalar; b) idrok v) reaksiya; g) qiyinchiliklar	a) maqsadi; b) talabalar	E

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

a) asosiy adabiyotlar

Klarin M. V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. M.: Znanie. 1989. – 80s.

Talizina N. F., Gabay T. V. Puti i vozmozhnosti avtomatizatsii uchebnogo protsessa. M.: Znanie, 1987. – 64s.

Farberman B. L. Progressivno`e pedagogicheskie texnologii. T. IPVSSSh. 1999 – 84s.

b) qo`shimcha adabiyotlar.

Sayidaxmedov N. O`qituvchi faoliyatining texnologiyalanuvchanligi. G`G` Xalq ta'limi. 1999. № 5, 80-83b.

## **Ma'ruza № 9**

### **Mavzu: Ijodiy fikrlashni rivojlantirish asoslari**

#### **Reja:**

- 1. Bilimlarni shakllantirishda fikrlashning roli.**
- 2. Inson fikrini tushunishga yo`naltirilgan yondoshuv.**
- 3. Tahliliy fikrlash asoslari.**
- 4. Mahsuldor fikrlash.**
- 5. Zamonaviy dars modeli**

#### **Talaba bu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:**

- Bilimlarni shakllantirishda fikrlashning ahamiyati to`g`risida fikrlay oladi;
- Fikrlash tushunchasiga ta'rif bera oladi;
- Tahliliy fikrlash asoslari haqida ma'lumotga ega bo`ladi;
- Tanqidiy fikrlash, mahsuldor fikrlash to`g`risida tushunchaga ega bo`ladi.

#### **Tayanch so`zlar va iboralar**

Tanqidiy fikrlash, yo`naltirilgan fikrlash, inson fikrini tushunishga yo`naltirilgan yondoshuv, mahsuldor fikrlash, rejalashtirishga tayyorgarlik, moslashuvchanlik, maqsadga intiluvchanlik, o`z xatolarini tuzatishga tayyorgarlik, anglash, kelishtiruvchi qarorlarni qidirish.

#### **Mashg`ulot savollariga javob berish dasturi**

**Birinchi savolda:** Bilimlarni shakllantirishda fikrlashning ahamiyati to`g`risida tushuncha beriladi. O`qitishga an'anaviy yondoshuvda "tayyor" bilimlarni uzatib berish modeli asosiy o`rin olganligi haqida fikr yuritiladi. Bilimlar strukturasi atamasi, bilim tushunchalariga izoh berish.

**Ikkinchi savolda:** Inson fikrini tushunishga yo`naltirilgan yondoshuv to`g`risida ma'lumot beriladi, fikrlash jarayonlarini kompyuterlarning ishlash printsiplariga o`xshash tarzda modellashtirish haqida fikrlar bildirish.

**Uchinchi savolda:** Tahliliy fikrlash asoslari bo`yicha ma'lumot berish, tanqidiy fikrlashga tarif berib o`tiladi. Tanqidiy fikrlashning muhim afzalligi bayon

qilinadi. Dars bosqichlari (tashkiliy, chaqiruv, anglash, mulohaza, uyga vazifa) bo'yicha tushuncha berish.

### **Nazorat uchun test topshiriqlar:**

Narsa va xodisalarni funktsional va struktura xususiyatlari majmui Ta'lim berish jarayonida ukuvchilarni bilish faoliyatining boshkarish nimadan iborat:

- a) Ta'lim jarayonida ukuvchilar jamoasida ukuvchilarning uzaro munosabatini tashkil etish, ukuvchi shaxsini shakllantirishini boshkarish.
- b) Ijtimoiy foydali faoliyatning turli xillari uchun ma'lum kunikma va malakalarni ongli uzlashtirish;
- v) Uzining psixik jarayonlarini boshkara olishni shakllanishi va o'z xatti-xarakati bilim va echilayotgan masalaga yunaltirish;
- g) Narsa va xodisalarning moxiyati hamda xususiyatlarini anglashi va o'zlashtirishini yagona shaklini berish;

### **1. ... Respublika ilmiy-nazariy seminar qarorlariga muvofiq barcha ilmiy va oliy o'quv muassasalariga kadrlarni tayyorlash milliy modeliga mos ilg'or pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslarini ishlab-chiqish vazifasi yuklatildi.**

- a) 1999 yil aprel oyida Toshkent shahrida hamda may oyida Andijonda o'tkazilgan
- b) 1998yil aprel oyida Toshkent shahrida
- v) 1997 yil aprel oyida Andijonda o'tkazilgan
- g) 1995yil aprel oyida Toshkent shahrida

### **2. An'anaviy ta'lim texnologiyasi - bu**

- a) muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, o'qitishning an'anaviy shakli, metodi va ta'lim vositalarining majmuidan foydalanib ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishdir.
- b) o'qitishning an'anaviy shakli, metodi va ta'lim vositalarining majmuidan foydalanib ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishdir.
- v) ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan.
- g) muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni markazida talaba shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli.

### **3. Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi – bu**

- a) muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni markazida talaba shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lim - tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirishdir
- b) muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni markazida talaba shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shaklidir.
- v) o'qitishning an'anaviy shakli, metodi va ta'lim vositalarining majmuidan foydalanib ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishdir.
- g) ta'lim - tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirishdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- Klarin M. V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. M.: Znanie. 1989. – 80s.  
Talizina N. F., Gabay T. V. Puti i vozmozhnosti avtomatizatsii uchebnogo protsessa. M.: Znanie, 1987. – 64s.  
Farberman B. L. Progressivno'e pedagogicheskie texnologii. T. IPVSSSh. 1999 – 84s.

## Ma'ruza № 10

### Mavzu: GURUHLARDA ISHLARNI TASHKIL QILISH USLUBI VA TA'LIMNI TASHKIL QILISHNING GURUHLI SHAKLLARIDAN AMALIYOTDA FOYDALANISH

#### Reja:

1. Ta'limning tashkiliy shakllarini tanlash
2. Ta'limning guruhli shaklida pedagogik maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatlari
3. Ta'limni tashkil qilishning guruhli shakllaridan amaliyotda foydalanish

#### Talaba bu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

- Ta'limning tashkiliy shakllari bo'yicha tushunchaga ega bo'ladilar;
- ta'limni tashkillashtirish shakllari (frontal ish, barcha ta'lim oluvchilar bilan bir vaqtda ishlash, guruhlarda ishlash, statik juftliklarda ishlash, guruhlararo ish) ni sanab bera oladi;
- Ta'limning guruhli shaklida pedagogik maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatlarini biladi;
- Ta'limni tashkil qilishning guruhli shakllaridan amaliyotda foydalana oladi;

**Yozma «Davra suhbat» texnikasi qo'llaniladigan o'quv mashg'ulotining texnologik kartasini ishlab chiqa oladi.**

#### Tayanch so'zlar va iboralar

Ta'limning tashkiliy shakllari, ta'lim oluvchilar soni, yalpi ta'lim, mikroguruhlardagi ta'lim, individual ta'lim, frontal ish, barcha ta'lim oluvchilar bilan bir vaqtda ishlash, guruhlarda ishlash, statik juftliklarda ishlash, guruhlararo ish. Yozma «Davra suhbat»

#### Mashg'ulot savollariga javob berish dasturi

**Birinchi savolda:** Ta'limning tashkiliy shakllari bo'yicha tushuncha berib o'tiladi, ta'limni tashkillashtirish shakllari (frontal ish, barcha ta'lim oluvchilar bilan bir vaqtda ishlash, guruhlarda ishlash, statik juftliklarda ishlash, guruhlararo ish) to'g'risida ma'lumot beriladi.

**Ikkinchi savolda:** Ta'limning guruhli shaklida pedagogik maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatlarini bayon qilib berish. Ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakati shakllanishi va bilish jarayonini faollashtirish, ularda impatiyani, kommunikativlikni shakllantirish borasida mustaqil fikrlar bildiriladi.

**Uchinchi savolda:** Ta'limni tashkil qilishning guruhli shakllaridan amaliyotda foydalanish bo'yicha fikrlar bildiriladi. Yozma «Davra suhbat» guruhlarida ish texnikasidan foydalangan holda o'quv mashg'ulotini o'tkazish bo'yicha fikrlar bildiriladi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. Nazorat testlarini echib, belgilangan o'quv maqsadlarga erishganlik darajangizni aniqlang. Yuqoriroq bal olishga intilsangiz ushbu mavzu matniga murojaat qiling.

2. Mutaxassislik bo'yicha kasb-hunar kolleji o'quv rejasidagi maxsus (umumtexnik) fan bo'yicha 2 soatli darsni «Kichik guruhlarda ishlash uslubi»dan foydalanib loyihalang.

**Nazorat uchun test topshiriqlar.**

Guruh mashhulotlari bilan bir qatorda turli darajadagi gomogen guruhlarda mashhulot o'tkazish qaysi o'qitish uslubiga kiradi?

- a) Individuallashtirilgan
- b) Muammoli o'qitish.
- v) Tabaqalashtirilgan
- g) Kompyuterli.

O'quv jarayonini tashkil etishni bu shakli umumiy didaktika tizimiga asoslangan bo'lib, maxsus tashkil ettirilgan talabalarning gomogen guruhlarida o'quv jarayonini maxsuslashtirishni ta'minlaydi.

Yuqorida qaysi o'qitish texnologiyasiga ta'rif berilgan?

- a) Tabaqalashtirilgan
- b) Individual
- v) Kompyuterli.
- g) Modulli.

Moderatsiyani o'tish tartibi qaysi banda to'g'ri keltirilgan?

- a) Kirish, mavzular yoki muammolarni to'plash, mavzular va muammolarni tanlash, mavzu va muammo ustida ishlash, tadbirlar rejasini tuzish, yakuniy va keyingi harakatlar.
- b) Kirish, mavzular yoki muammolarni to'plash, mavzular va muammolarni tanlash.
- v) Mavzu va muammo ustida ishlash, tadbirlar rejasini tuzish, yakuniy va keyingi harakatlar.
- g) Kirish, mavzu va muammo ustida ishlash.

O'quv didaktik materiallar deganda nimalar tushuniladi?

- a) O'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchilar tushuniladi. Ular axborot olish va axborotlarni qayta ishlash uchun ishlatiladi.
- b) Ular axborot olish va axborotlarni qayta ishlash uchun ishlatiladi.
- v) Ta'lim jarayonida ishlatiladigan o'qitishning texnik vositalari.
- g) Ta'lim jarayonini takomillashtiruvchi qurilmalar.

Guruhiy ishlarda qanday holatlar farqlanadi?

- a). Bir xil mavzuda olib boriladigan guruhiy ishlar, har xil mavzuda olib boriladigan guruhiy ishlar.
- b) Guruhlarga beriladigan topshiriqlar bilan farqlanadi.
- v) Guruhdagi talabalar soni bilan.
- g) Bir qancha javoblardan birini tanlash orqali.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya i uchebnom protsesse. Analiz zarubejnogo opo'ta. - M. : Znanie. 1989. - 80 s.
2. Farberman B.L. Progressivno'e pedagogicheskie texnologii. T. : IPVSSSh. 1999. - 84 s.
3. Ishmatov q. Ilg'or pedagogik texnologiyalar fanidan ma'ruzalar matni. Namangan. NamMPI, 2000. - 84b
4. Alimov N., Turmatov J. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. 2006. 97 b.

5. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: «O'qituvchi», 2004. -102 b.

4. 6. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: 2003, -174

## **TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI**

### **Innovatsion faoliyatning nazariy omillari**

- INNOVATSIYA (inglizcha innovation)- yangilik kiritish, yangilikdir.
- Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.
- Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog o'quvchi - talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.
- Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:
  - O'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
  - O'quvchi talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;
  - O'quvchi talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
  - Pedagog va o'quvchi talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'quvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya-bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan texnik vositalar, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi-bu o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har-bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya-bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.



## 2. Aqliy hujum metodi

Aqliy hujum - g`oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. «Aqliy hujum» metodi biror muammoni echishda talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to`plab, ular orqali ma`lum bir echimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy hujum metodining yozma va og`zaki shakllari mavjud. Og`zaki shaklida o`qituvchi tomonidan berilgan savolga talabalarning har biri o`z fikrini og`zaki bildiradi. Talabalar o`z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga talabalar o`z javoblarini qog`oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko`rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy hujum» metodining yozma shaklida javoblarni ma`lum belgilar bo`yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to`g`ri va ijobiy qo`llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o`rgatadi.

Aqliy hujum metodidan foydalanilganda talabalarning barchasini jalb etish imkoniyati bo`ladi, shu jumladan talabalarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Talabalar o`z fikrini faqat og`zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko`nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi talabalarda turli g`oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Vazifasi. «Aqliy hujum» qiyin vaziyatlardan qutulish choralarini topishga, muammoni ko`rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilligini yo`qotishga va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni echish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o`tiladi va guruh yanada jipslashadi.

Ob`ekti. qo`llanish maqsadiga ko`ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilikda (yangi muammoni echishga imkon yaratadi), o`qitish jarayonida (o`quv materiallarini tezkor o`zlashtirishga qaratiladi), rivojlantirishda (o`z-o`zini bir muncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi) asqotadi.

qo`llanish usuli. «Aqliy hujum» ishtirokchilari oldiga qo`yilgan muammo bo`yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib boriladi va ularning mualliflari o`z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo`ldi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflanadi va aqliy hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy hujum tugagach, muhimlik jihatiga ko`ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni echish uchun zarurlari tanlanadi.

«Aqliy hujum» metodi o`qituvchi tomonidan qo`yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Talabalarning boshlang`ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo`yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog`lash maqsad qilib qo`yilganda - yangi mavzuga o`tish qismida amalga oshiriladi.

3. O`tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo`yilganda - mavzudan so`ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

«Aqliy hujum» metodining afzallik tomonlari:

- natijalar baholanmasligi talabalarni turli fikr-g`oyalarning shakllanishiga olib keladi;

- talabalarning barchasi ishtirok etadi;

- fikr-g`oyalar vizuallashtirilib boriladi;

- talabalarning boshlang`ich bilimlarini tekshirib ko`rish imkoniyati mavjud;

- talabalarda mavzuga qiziqish uyg`otish mumkin.

«Aqliy hujum» metodining kamchilik tomonlari:

- o`qituvchi tomonidan savolni to`g`ri qo`ya olmaslik;

- o`qituvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

«Aqliy hujum» metodining tarkibiy tuzilmasi:

«Aqliy hujum» metodining bosqichlari:

1. Talabalarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo`yicha o`z javoblarini (fikr, mulohaza) bildirishlarini so`raladi;

2. Talabalar savol bo`yicha o`z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

3. Talabalarning fikr-g`oyalari (magnitofonga, videotasmaga, rangli qog`ozlarga yoki doskaga) to`planadi;

4. Fikr-g`oyalar ma'lum belgilar bo`yicha guruhlanadi;

5. Yuqorida qo`yilgan savolga aniq va to`g`ri javob tanlab olinadi.

«Aqliy hujum» metodini qo`llashdagi asosiy qoidalar:

a) bildirilgan fikr-g`oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

b) bildirilgan har qanday fikr-g`oyalar, ular hatto to`g`ri bo`lmasa ham inobatga olinadi.


v) bildirilgan fikr-g`oyalarni to`ldirish va yanada kengaytirish mumkin.

### **Muammoli o`qitish texnologiyasi**

Muammoli o`qitish amerikalik filosof, psixolog va pedagog Dj.Dionning nazariy qoidalariga asoslanadi va XX asrning 20-30 yillarida tarqala boshladi.

Bugungi kunda, muammoli o`qitish deganda mashg`ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni echishga qaratilgan talabalarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida talabalar kasbiy bilim, ko`nikma va malakalarga ega bo`ladilar hamda fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Muammoli o`qitish, o`qitishning eng samarali usulidir. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, talabani uni echishga yo`naltiradi, echimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o`qitishni boshqarish, pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo`lishi-individual holat bo`lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.




«Muammoli o`qitish» ning blok sxemasi

#### 4. «KLASTER» metodi

Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani Aniqlashni talab etadi. «Klaster» metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Stil va Stil g'oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan «Klaster» metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

«Klaster» metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:




#### «Klaster» metodining qoidalari

## 5. «VEN DIAGRAMMASI» strategiyasi metodi

Ushbu strategiya o`quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o`zlashtirish (sintezlash) ko`nikmalarini hosil qilishga yo`naltiradi. Strategiya guruhlarni shakllantirish asosida sxema bo`yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasi o`zaro teng to`rt bo`lakka ajratiladi va har bir bo`lakka quyidagi sxema chiziladi:



Strategiya o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilgan o`zaro yaqin nazariy bilimlar, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu strategiyadan muayyan bo`lim yoki boblar bo`yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Strategiyani qo`llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

*sinf o`quvchilari to`rt guruhga bo`linadi; yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi; har bir guruhga o`zlashtirilayotgan mavzu (bo`lim, bob) yuzasidan alohida topshiriqlar beriladi; topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi; liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diogrammani to`ldiradilar.*

«Venn diagrammasi» strategiyasini qo`llash jarayonida guruhlar tomonidan tashkil etiluvchi faoliyat mohiyati quyidagichadir.

## 6. «6x6x6» metod

Ushbu metod yordamida bir vaqtning o`zida 36 nafar o`quvchini muayyan faoliyatiga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarni aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. 6x6x6 metodi asosida tashkil etilayotgan mashg`ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo`lgan 6 ta guruh o`qituvchi tomonidan o`rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokoma qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach o`qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo`ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o`z

jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) echimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur echimlarni birgalikda muhokoma qiladilar.

«6x6x6» metodining afzallik jihatlari qo`yidagilardir:

**Guruhlarning har bir a'zosini faol bo`lishga undaydi;  
ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;  
guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko`nikmalarini hosil qiladi;  
ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o`z fikrini himoya qilishga o`rnatadi**

Eng muhimi, mashg`ulot ishtirokchilarining har biri vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham, tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5, 6, 7 va hatto 8 nafar o`quvchidan iborat bo`lgan bir necha guruhlarda ham qo`llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o`rtasida «6x6x6» metodi qo`llanilganda vaqtni ko`paytirishga to`g`ri keladi. Chunki bunday mashg`ulotlarda munozara uchun ham, axborot uchun ham bir muncha ko`p vaqt talab etiladi. So`z yuritilayotgan metod qo`llanilayotgan mashg`ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzu (muammo) ni muhokoma qilish imkoniyati mavjud.

«6x6x6» metodidan ta'lim jarayonida o`qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo`lishni talab etadi. Guruhlarning to`g`ri shakllantirmasligi topshiriq yoki vazifalarning to`g`ri hal etilmasligiga sabab bo`lishi mumkin. «6x6x6» metodi yordamida mashg`ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O`qituvchi mashg`ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stol qo`yib chiqiladi.

2. O`quvchilar o`qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo`linadilar. O`quvchilarni guruhlarga bo`lishda o`qituvchi quyidagicha yo`l tutishi mumkin: 6 stolning har biriga muayyan ob'ekt (masalan, kema, to`lqin, baliq, delfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo`yib chiqadi. Mashg`ulot ishtirokchilariga kema, to`lqin, baliq, delfin, kit hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o`quvchi o`zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo`yilgan stoldan joy egallaydi.

3. O`quvchilar joylashib olganlaridan so`ng o`qituvchi mashg`ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib munozara jarayoni tashkil etiladi.

4. O`qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o`rinlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo`l-yo`riqlar ko`rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to`g`ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so`ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so`raydi.

5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, o`qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi oltita

guruhning har biridan bir nafar vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan so'ng belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning echimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar.

### 7. «qora quti» metodi

Ta'lim jarayonida mazkur metodni qo'llashdan maqsad o'quvchilar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma'lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Metoddan foydalanish-da quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

*o'quvchilar juftlikka birlashtiriladilar; juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar (tayanch so'zlar, sanalar, Raqamlar, belgilar va h.o.) ni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi; o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar; topshiriqni to'g'ri bajargan guruhning bir a'zosi o'qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning echimini yozuv taxtasiga yozadi; tarabalar yozuv tvxtaisda qayd etilgan fikrni sharhlaydilar (tayanch so'zlar, sanalar, belgilar qanday ma'noni anglatishini aytadilar); to'g'ri javob bergan o'quvchi o'qituvchi rolini bajarib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o'qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.*

### 8. «Beshinchisi (oltinchisi, ettinchisi, ...) ortiqcha» metodi

O'quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

**o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish; hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish; o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish; o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim)**

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rsata va asoslay olish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarni asoslay olish, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o'zaro taqqoslash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

### 9. «3<sup>1</sup>/<sub>2</sub>3» («4<sup>1</sup>/<sub>2</sub>4», «5<sup>1</sup>/<sub>2</sub>5», ...) metodi

Mazkur metod ham yuqorida qayd etilgan metodlarning muqobili hisoblanib, o`quvchilardan o`rganilayotgan mavzu (yoki bo`lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Unga ko`ra o`qituvchi mavzu (bo`lim, bob) yuzasidan uchta (to`rtta, beshta va h.k.) to`g`ri va unga teng nisbatda (uchta, to`rtta, beshta) bo`lgan va noo`rin qo`llanilgan tushunchalar (so`zlar, belgilar, tasvirlar va boshqalar) dan iborat tizimni shakllantiradi. O`quvchilar ushbu tizimdan mavzu (bo`lim, bob) ga taalluqli bo`lmagan tushunchalarni ajratadilar va harakatlarning mohiyatini izohlaydilar.

Metodni qo`llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o`quvchilar tomonidan mavzuning puxta o`zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar**

1. Alimov N., Turmatov J. Pedagogik texnologiyalar kitobidan 75-85-betlarni o`qib konspeklashtiring.

2. Mavzu bo`yicha 10 ta test topshiriqlarini tuzing.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya i uchebnom protsesse. Analiz zarubejnogo opo`ta. - M. : Znanie. 1989. - 80 s.

2. Farberman B.L. Progressivno`e pedagogicheskie texnologii. T. : IPVSSSh. 1999. - 84 s.

3. Alimov N., Turmatov J. Pedagogik texnologiyalar. O`quv qo`llanma. 2006. 97 b.



## Мундарижа

1. Кириш.....	3
2. Ўқитиш жараёнига технологик ёндошишнинг моҳияти ва аҳамияти.....	5
3. Педагогик мақсадларни белгилаш технологияси.....	9
4. Эталон - мақсадларини шакллантириш ва уларни назорат тест топшириқларига айлантириш. Тест топшириқ формалари.....	12
5. Тест шакллари ва улардан фойдаланиш .....	15
6. Тест топшириқларини тузиш методикаси.....	18
7. Педагогик технологиянинг тамойил ва қоидалари .....	21
8. Тўла ўзлаштириш технологияси .....	25
9. Тўла ўзлаштириш технологиясини амалга ошириш усуллари .....	28
10. Ижодий фикрлашни ривожлантириш асослари .....	32
11. Гуруҳларда ишларни ташкил қилиш услуби ва таълимни ташкил қилишнинг гуруҳли шаклларида амалиётда фойдаланиш .....	34
12. Таълим самарадорлигини ошириш усуллари .....	36

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: 1997 y.
2. «Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar» T.: O'zbekiston. 2000y.
3. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. T. Muallif. 1991 yil.
4. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T. "O'qituvchi" 2004y.
5. Ishmatov K. Pedagogik texnologiya. O'quv ko'llanma. Namangan NamMPI.2004 y.
6. Rukovodstva po razvitiyu kriticheskogo mo'shleniya. Metodicheskoe posobie IOO FS Uzbekistan 2002 g.
7. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T. OO'MMMI 2000 y
8. Farberman B.L. Musina R.G. Jumabaeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari T.: OO'MMMI, 2002 y

### qo'shimcha

9. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. M.: "Znanie" 1989 g.
10. Okon V. Vvedenie v obhuyu didaktiku. Perevod s polsk. L.G. Kashkurevicha, N. G. Gorina, -M.: Vo'ssh. shk., 1990g.
11. Podlaso'y I.P. Pedagogika. Novo'y kurs v 2-x kn. Kn.1,2-M.: Vlados, 1999g.
12. Saymon B. Obshestvo i obrazovanie; Per. s angl. (Obsh. Red. i predisl V.Ya. Pilipovskogo) –M.: Progres, 1989. -2000s.
13. <http://www.geosities.com>. G'tyagloG`ctG`index. htmlG`.
14. [www.casemethod](http://www.casemethod).
15. ruzaniya\_g@rambler. Ru
16. news ru



